

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TARBIYALANUVCHILARIGA
INTEGRATIV TA'LIM -TARBIYA BERISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH.**

M.K.Jabborova

Shah.DPI Pedagogika fakulteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Bo'ronova Mashhura Ismoil qizi.

Shah.DPI Pedagogika fakulteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Anotatsiya: *Integratsiyalashgan ta'lim ko'rgazmali ta'lim sistemasi bo'lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko'rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o'rganadi. Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishga doir qisqacha tafsilotlar berilgan.*

Аннотация: Интегрированное обучение представляет собой наглядную образовательную систему, исследующую секреты формирования изобразительных умений на основе углубления и расширения интегративных знаний. В данной статье приведены краткие сведения об использовании мультимедийных средств в процессе интегрированного обучения в дошкольных образовательных организациях.

Abstract: *Integrated education is a visual educational system that explores the secrets of creating visual skills based on the deepening and expansion of integrative knowledge. This article provides brief details about the use of multimedia tools in the process of integrated training in preschool education organizations*

Integratsiya (lot.integratio-tiklash,to'ldirish)degan ma'noni anglatadi.Jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning integratsiya-alohida elementlarni yig'ib,ularni birlashtirish,yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin.Shuningdek,ko'pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo'yicha fikr berganlar.Hozirgi kunda "Integratsiya"tushunchasining aniq tarifi metodik adabiyotlarda,bu muammo bo'yicha shug'ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflarda berilgan.Ta'limning integratsiyalashning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir.Mana shuning uchun kichik bog'cha tarbiyalanuvchilari predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan ko'rishi muhim:mantiqiy va emotsional tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog,so'z ustasi,rassom,musiqachi nuqtayi nazaridan va boshqalar.Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog'lanishlarni aniqlash bilish,fanlararo bog'lanish,ya'ni uzviylikni ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy va tarbiyaviy mashg'ulotlarni integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi tarbiyachilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Integratsiyalashgan mashg'ulotdan kutiladigan maqsad faqat ma'lum bilimlarni egallashga emas, balki tasvirli fikrlashni rivojlantirishga qaratiladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'ringa qo'yadi.

Asosiy bilimlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o'rnatish talimga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli mashg'ulotlarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday mashg'ulot integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan mashg'ulotga boshqa mashg'ulot, boshqa okuv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan "tabiat", "suvlar", "go'zallik" kabi tushunchalar tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy sanat mashg'ulotlarida tashkil etiladi. Albatta bunday mashg'ulotlarni olib borish tarbiyachdan yuksak mahoratni, boshqaruvchanlikni talab etadi. Integratsion mashg'ulotlarda bola jimgina tomoshabin bo'lib o'tirmaydi. U mashg'ulot jarayonida faol va izchil qatnashadi. Aynan shunday mashg'ulotlarda bolalarda badiiy tafakkur va tasavvur rivojlanadi, estetik hissiyotlari tarbiyalanadi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalar, shu jumladan maktabgacha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalari bilan jihozlanmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida yangi kompyuter va axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalanish malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga, ularning integratsiyalashgan mashg'ulotni tashkil etish jarayonidagi maqsadi, vazifalari va tutgan o'rnini o'zgartiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ta'lim berishda axborot texnologiyalaridan foydalanish murakkab masala hisoblanib, ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Lekin shunga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularning har tomonlama yetuk inson bo'lib rivojlanishida integratsiyalashgan mashg'ulotlarda kompyuter texnologiyalari vositalaridan foydalanish o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning badiiy -musiqiy faoliyatini, matnlarni o'qish, rasmlarni ko'rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish kompyuterli o'yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bu borada maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi uchun mo'ljallangan kompyuterli o'yin dasturlarining ta'lim jarayoni o'z samarali jihatlariga jiddiy

yondashuv va etibor kerak bo'ladi. Integratsiyalangan mashg'ulotlar shunday tashkil etilishi kerakki, multimedia texnologiyalarini musiqa mashg'ulotlarida qo'llash, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to'g'ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. Hozirgi kunda multimedia atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli xil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etib kelinmoqda. Masalan, multimedia texnologiyasi, multimedia mahsuloti, multimediali kompyuter kabilardan foydalaniladi. Belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayon rwxalashtirilganda uni amalga oshirish osonlashadi. Binobarin, musiqa rahbarining musiqa mashg'ulotlari xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki mashg'ulotning texnologik xaritasida, har bir mavzu tarbiyalanuvchining imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuziladi. Mashg'ulotning texnologik xaritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu musiqa rahbarining tajribasi, qo'ygan maqsadi va imkoniyatlariga borliqdir. Musiqa rahbari katta hamda maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan integratsiyalangan musiqa mashg'ulotlari jarayonida qo'llashi mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglarni keltirib o'tamiz. Masalan: "tinglaymiz va tahlil qilamiz" metodi; "notali o'yinlar" metodi; "ovozidan top" metodi; "barmoqlar" metodi va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim davri bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan davr hisoblanadi. Shuning uchun mashg'ulot rahbari mashg'ulotlar jarayonida bolalarda yoshiga mos va ularga tushunarli mazmunda musiqa asarlari go'zalligini his qilish, mazmunini tushunish, Vatanga muhabbat hissi, milliy g'ururini shakllantirish, yorqin ifoda vositalarini farqlash kabilarni o'rganib boradi.

Keyingi vaqtlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni amalga oshirishda integratsiyalashgan ta'lim metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, bolada ona vatanga muhabbat, insoniy fazilatlarni shakllantirish mashg'ulotlarning asosiy maqsadi sanaladi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-manaviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutiladi. Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tahlillar shuni

ko'rsatadiki,oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga,orqaga ketish holatlari,yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmoqda.Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar mashg'ulotga jiddiy tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.Integratsiyalashgan mashg'ulotning shakli nostandart va qiziqarli.Har xil turdagi ishlardan foydalanish tarbiyalanuvchilarning diqqatini yuqori darajada ushlab turadi.Integratsiyalashgan mashg'ulotlar izlanish,tayyorgarlik,ijro,yakuniydan iborat bo'ladi.Ular an'anaviy mashg'ulotlardan shu toifasi bilan farq qiladi.Xo'sh integratsiyalashgan mashg'ulotlar tarbiyachiga nima beradi?Avvalo,. ma'naviy ozuqa oladi.Bunda odatiy mashg'ulotdan chalg'ib,o'zi va bolalar uchun tashkil qilish mumkin bo'lgan bayramdir.Bunday saboqlar zavq bag'ishlaydi.Bolalar uchun qiziqarli,ularda mashg'ulotga,tadqiqot ishlariga qiziqish uyg'otadi.Talim tizimiga fanlarning integratsiyalashuvining joriy etilishi hozirgi kunda maktab va butun jamiyat oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilish imkoni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori PQ-4312 13.10 2019.

2.D.S.Qaxarova "integrativ ta'lim texnologiyasi"o'quv va metodik qo'llanma 2014